

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSINING ZAMONAVIY MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Sohibova Kumush Bekzod qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi
(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-kurs magistranti Email:sohibovakumush9@gmail.com*

<https://orcid.org/0009-0000-8150-7935>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkir allomalari tomonidan yaratilgan asarlar, asrlar davomida ma'naviy kamolotning shakllanishiga xizmat qilgan falsafiy g'oyalar va ularning bugungi kundagi ma'naviy tarbiya tizimidagi ahamiyati tahlil etilgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilayotgani va bu asarlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishdagi muhim manbalar bo'lib xizmat qilayotgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy meros, ma'naviy tarbiya, axloqiy kamolot komil inson g'oyasi, axloq va odob, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviylik, insonparvarlik g'oyalari, ma'naviy barkamollik.

KIRISH

Sharq uyg'onish davri allomalari tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros - ularning asarlari va qo'lyozmalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ajdodlarimizdan qolgan asarlar o'zining muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hozirgacha butun dunyo xalqlarini hayron qoldirib kelmoqda. Komil inson tarbiyasida o'zidan o'lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bugungi kunning muhim vazifasidir. Sharq tarixida ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya masalalariga har doim ham jamiyatning eng muhim ma'naviy tayanchi sifatida qaralgan. O'rta asr Sharq allomalarining asarlarida komil inson tarbiyasi, jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlash, ilm-ma'rifatning inson hayotidagi o'rni haqida chuqur falsafiy qarashlar haqidagi masalalar ko'zda tutilgan. Allomalarimiz yaratgan ma'naviy meros o'z davrida nafaqat Sharq, balki G'arb davlatlari va butun insoniyat tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bugungi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharq allomalari merosida insonning ma'naviy kamoloti faqat ilm egallash bilan emas balki ruhiy tarbiya, axloqiy poklanish, jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur his qilish, o'zligini anglash orqali ro'yobga chiqishini ta'kidlashadi. Mazkur g'oyalar hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini oshirishda asosiy mezon sifatida ko'rilmogda.

Asosiy qism: Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lgan. Bu davrda ilm-fan yuksak tarqqiy etgan. Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish maqsadida Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Akademiya ilmiy ijodkorlari o'z faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyati vujudga kelgan. Bunday yaxlit madaniyatning vujudga

kelishida vatandosh allomalarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalarimizning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan hissalar ulkan bo'lib, barcha yo'nalishlarni qamrab olganligi bilan ko'zga tashlanadi. Ular aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar, ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy va diniy qadriyatlarda o'z aksini topgan.

Abu Nasr Forobiy Sharqning buyuk mutafakkiri sifatida tanilgan. U falsafa, siyosat, mantiq, musiqashunoslik, axloq va pedagogikaga oid ko'plab asarlar yaratgan. Forobiy ilmiy merosining markazida inson, uning axloqi, kamoloti, uning jamiyat hayotidagi o'rni haqida chuqur falsafiy qarashlari mavjud. Forobiy jamiyat taraqqiyotini insonning ma'naviy kamolotiga bog'liq deb biladi. Uning "Baxt saodatga erishuv to'g'risida"gi asarida inson shakllanishi uchun ikki omil muhimligini ta'kidlaydi. Bularning birinchisi ta'lim (ilm berish) va ikkinchisi tarbiya (axloqiy fazilatlarni shakllantirish). Uning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson hislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari muhim ahamiyatga ega. Forobiy inson tabiatdan fazilatli yoki yovuz bo'lib tug'lmaydi, balki u tarbiya orqali shakllanadi deb aytib o'tgan. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ma'naviy tarbiyaning asosini fazilatli inson tushunchasi orqali ifodalaydi. Unga ko'ra, axloqli, kamtar, o'zini boshqara oladigan, boshqalarga mehribon, jonkuyar inson fozil shaxsdir deb biladi. U jamiyatning ma'naviy poydevorini to'g'ri tarbiya belgilaydi, fozil jamiyatda esa adolat hukm suradi, ma'naviy poklik ustuvor bo'ladi, ilm qadrlanadi, rahbar esa donishmand va axloqli bo'ladi deb hisoblagan. Fozil jamiyatning asosiy maqsadi insonni "baxt-saodat"ga yetkazishdir. Bu esa faqat ma'naviy tarbiya, ilm va axloqiy kamol toppish orqali amalga oshiriladi. Mutafakkirning fikricha, jamiyatning buzilishi – insondagi yomon xulqlar: hasad, nafs, jaholat, g'azab, johiliyat oqibatidandir. Shuning uchun tarbiya nafaqat yoshlar uchun, balki butun jamiyat uchun zarur bo'lgan jarayondir. Forobiy axloqiy tarbiyani uch asosga egaligini aytib o'tgan. Bular nafsoniyatni poklash, aqlni kamolga yetkazish, fazilatlarni egallashdir. Uning nazarida ma'naviy tarbiya saxovat, adolat, mehnatsevarlik, sabr-toqat, halollik, ilmga muhabbat va boshqa ijobiy fazilatlarni shakllantirishi kerak. Bugungi kunda ham uning ma'naviy tarbiya haqidagi qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning fikrlari ta'lim-tarbiya tizimida – o'qituvchi va o'quvchi munosabatini axloq me'yorlari asosida qurish, jamiyat boshqaruvida – adolatli, mas'uliyatli va halol rahbar g'oyasi, ma'naviyat va axloq darslarida – odob va ijobiy fazilatlarni shakllantirish, shaxs tarbiyasida – ilmga intilish, o'zini boshqara olish, nafsni tiyish kabi sohalarida qo'llaniladi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ham Sharq uyg'onish allomalaridan biri, algebra fanining asoschisi hisoblanib, matematik, astronom, geograf olimdir. U Bag'doddagi "Bayt ul-Hikma" ilmiy markazida faoliyat yuritgan. Uning "Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob" asari matematika tarixida yangi davrni boshlab bergan va bu o'z davrining buyuk ilmiy kashfiyotlaridan biri hisoblangan. Al-Xorazmiy nafaqat ilmda, balki madaniyat, ma'naviyat, axloqiy fazilatlar masalalarida ham o'z fikrlarini to'liq, tugal ifodalab bergan alloma sifatida ham tanilgan. Xorazmiyning algebra fanidagi ilmiy yutuqlari jahon ilm-fani rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Mutafakkir o'z asarlarida bevosita axloq haqida yozmagan bo'lsa ham, uning ilmiy merosida ma'naviy qadriyatlar chuqur mujassam etgan.

Alloma ilmni insonni yuksaltiruvchi eng buyuk boylik deb hisoblagan. Ilmni egallashni esa shaxsning kamolotga erishish yo'li deb bilgan. Uning matematik metodlarida tartib, aniqlik va adolat tamoyillari ustuvor bo'lgan. Xorazmiy ilmiy jarayonni sabr, mehnat va qat'iyat orqali amalga oshirish zarurligi va bu orqali yoshlar tabiyasida ma'naviy sifatlar shakllanishini aytib o'tgan. Alloma ilmni faqatgina nazariya uchun emas, odamlarga foyda keltirish uchun yaratish muhim deb hisoblagan. Bu g'oya esa insonparvarlikning eng yuksak ko'rinishidir. Mutafakkir har bir ilmiy kashfiyotning manbasini ko'rsatgan va o'zidan oldingi allomalar asarlariga, fikrlariga hurmat bilan yondashgan. Bu orqali alloma ilmiy adolatga sodiqlikni targ'ib qilgan. Forobiyning fikricha, ma'naviy kamolot – bilimni hayotda to'g'ri qo'llay bilishdir, ilm amaliyot bilan uyg'un bo'lgandagina ma'naviy fazilatga aylanadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida Xorazmiy g'oyalari muhim ahamiyatga ega. U yoshlarni ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash, yosh avlodni foydali kasb egasi bo'lishga yo'naltirish, ilmiy halollikni, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy mas'uliyat, jamiyatga foyda keltirish g'oyalarini kuchaytirishga undagan. Al-Xorazmiy ma'naviy tarbiya – ilmiy kamolotning ajralmas qismi deb hisoblaydi. Ilm-fan yutuqlari esa ma'naviy jihatdan toza, halol, tartibli, izlanishga chanqoq insonlarda namoyon bo'ladi deb ta'kidlagan.

Ahmad al-Farg'oniy – Sharq Renessansi davrining mashhur astronomi, matematik va geograf olimidir. Al-Farg'oniy asarlari jahon ilm-fanida alohida o'rin egallagan. Uning ilmiy merosi Yevropa uyg'onish davriga ta'sir ko'rsatgan, hatto Xristofor Kolumb ham uning asarlaridan foydalagan. Bu esa olimning nafaqat ilmiy salohiyati, balki ma'naviy pokligi, halolligi va ilmga bo'lgan sadoqatidan dalolat beradi. Farg'oniyni mantiqiy tafakkuri, sabr-toqati, adolatli ilmiy izlanish madaniyati ma'naviy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Farg'oniy uchun ilm nafaqat kasb, balki insoniy kamolotning asosidir. Al-Farg'oniy o'zidan oldingi allomalarning ilmiy merosini katta hurmat bilan o'rganib, ularga ilmiy tuzatishlar kiritadi. Biz buni o'tmish ilmiga hurmat ko'rsatishning yuksak namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin. Olimning juda ko'p ilmiy natijalari sabr, izlanish, kechayu kunduz ilm bilan shug'ullanish natijasidir. Bu kabi fazilatlar ma'naviy tarbiyaning asosiy unsurlari hisoblanadi. Forobiy kionotdagi tartib va uyg'unlikka qarab, inson o'z hayotini ham tartibga solishi kerakligini ta'kidlagan. Al-Farg'oniy g'oyalari bugungi kunda yoshlarni ilmga mehr bilan tarbiyalash, mantiqiy fikrlashni uyg'otish, sabr, intizom, tartib kabi ma'naviy fazilatlarni rivijlantirish, fanlararo integratsiya orqali dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy mas'uliyatni shakllantirish, Vatan tarixiga hurmat va milliy g'ururini oshirish kabi bir qator ijobiy yo'nalishlarda qo'llanilmoqda. Farg'oniy ma'naviy tarbiya – ilmiy kamolotning ajralmas qismi, ilmsiz ma'naviyat bo'lmagani kabi ma'naviyatsiz ilm ham insonni komil qilmaydi deb ko'rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy – Sharq uyg'onish davrining eng buyuk allomalaridan biri, qomusiy olim, faylasuf, matematik, tarixchi, geograf va tilshunos olimlaridan biridir. U o'z asarlari orqali ilm-fanning barcha sohalarini asosiy yo'nalishlarini yuksak darajada yoritgan. Beruniy hayotida ilm va ma'rifat yuksak darajadagi ajralmas qadriyat bo'lgan. Alloma ilmni o'z nafsini tarbiyalash, insonni poklash, adolatni qaror toptirish vositasi sifatida baholagan. U ilmni insonni yuksaltiruvchi eng buyuk nur deb bilgan. U ilm ortidan quvgan kishi hech qachon ziyon ko'rmaydi deb ta'kidlagan. Beruniy qarashlarida insonning kamoloti uning

ma'naviy pokligi, aql-zakovati va odobiga bog'liq hisoblanadi. U ilmiy ishda adolatni eng oliy mezon sifatida ko'rgan, yolg'on, mubolag'a, taqlidni ilmni eng katta dushmani deb ta'kidlaydi.

“Hindiston” asarida alloma turli xalqlarni dinlari, urf-odatları va hayot tarzi haqida chuqur hurmat bilan yondashib yozgan. Bu esa allomaning madaniy jihatdan bag'rikengligini, insoniyatni bir butun deb ko'rganini ko'rsatadi. Beruniy axloq haqida risola yozmagan bo'lsa ham uning asarlarida bevosita kuchli ma'naviy-axloqiy g'oyalar o'z aksini topgan.

Alloma biror bir ilmiy fikrni asoslamasdan turib qabul qilmagan, u haqiqatni izlashni insonning hayoti davomidagi eng muhim vazifasi deb hisoblagan. Bu esa insonda ma'naviy tarbiyada rostgo'ylik, adolat, halollik fazilatlarini shakllantiradi. Beruniyning fikricha, ilmning eng oliy maqsadi- insonga xizmat qilish hisoblanadi. Alloma sabr-toqat, kamtarlik, bag'rikenglik, ilmga intilish, mehnatsevarlik, adolat, halollik komil insonning asosiy belgisi sanalishini aytgan.

Xulosa: Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros, ilmiy asarlar bugungi kunda zamonaviy ma'naviy tarbiya jarayonining muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. Sharq allomalari ulm-fan, axloq, tarbiya va inson kamoloti masalalariga chuqur falsafiy yondashgan holda komil inson g'oyasini ilgari surganlar.

Allomalarimiz merosida ma'naviy tarbiya faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki dunyosini boyitish, ruhiy kamolotini ta'minlash, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashga qaratilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, Forobiyning fozil jamiyat haqidagi qarashlari, Xorazmiyning ilmiy halollik va amaliy foydalilikka asoslangan g'oyalari, Farg'oniy va Beruniyning ilmiy adolat va bag'rikenglikka tayangan yondashuvlari bugungi ta'lim tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Forobiy A.N. Baxt-saodatga erishuv to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Al-Xorazmiy M. Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Al-Farg'oniy A. Astronomiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
5. Beruniy A.R. Hindiston. – Toshkent: Fan, 1965.
6. Beruniy A.R. Tanlangan asarlar (I–III jildlar). – Toshkent: Fan, 1968–1976.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Qosimov B. Sharq mutafakkirlari va ma'naviy tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
9. Madayev O. Komil inson tarbiyasi va Sharq falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
10. Abdurahmonov A. Sharq Renessansi va jahon sivilizatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.